

**МАКТАВ YOSHIDAGI BOLALARINI IJODIY QOBILYATLARINI  
OSHIRISHDA TASVIRIY SANAT FANINING AHAMIYATI!**

*Andijon viloyati Qorgontepa tumani Qorasuv shahri.*

*Andijon davlat Universitetining Pedagogika Instituti Tasviriy sanat va  
muhandislik grafikasi yonalishi 2 bosqich talabasi.*

*Adhamova Oltinoy Rafiqjon qizi.*

**Annotation:** Ushbu maqolada maktab yoshidagi bolalarni ijodiy qobilyatlarini oshirishda tasviriy sanat fanining ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Tasviriy faoliyat, ma'naviy dunyoqarash, san'at, rasm, ijodiy fikrlash, ijodiy tasavvur, estetik hissiyot.

Tasviriy san'at darslari o'quvchilarda ma'naviy dunyoqarashni, g'oyaviy e'tiqodni shakllantirishda aloxida ahmiyat kasb etadi. U fikrlash qobiliyatini, ko'rish xotirasini, ijodiy tasavvurni, badiiy didni, estetik hissiyotni o'stiradi. Maktabda o'qitiladigan tasviriy san'at darslarining har bir turi (narsaning o'ziga qarab rasmini chizish, dekorativ rasm chizish, mavzu asosida rasm chizish, tasviriy san'at haqida suhbat) o'quvchilar ijodiy qobiliyatining o'sishiga, dunyoqarashining shakllanishiga yordam beradi, ya'ni shaxsni har tomonlama kamol toptiradi. Tasviriy san'atning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarga estetik, xususan, badiiy tarbiya berishdir. Estetik tarbiya - bu o'quvchilarning hayotdagi, tabiatdagi, san'atdagi, jamiyatdagi go'zalliklarini to'liq idrok etish qobiliyatini tarbiyalashdir. Go'zallik kishilarning aqliga, qalbiga, irodasiga ta'sir etib, ma'naviy dunyoqarashini boyitadi. Estetikaning izonlarning ijodiy faoliyatlaridagi roli benihoya kattadir. Hayotga estetik munosabatda bo'lish ilhomning asosi hisoblanib, mehnatni quvonch va ma'naviy zavq manbaiga aylantirishga yordam beradi. Estetik tarbiya jarayonida kishilarning qarashlari, his-tuyg'ulari, didi shakllanadi. Bu shakllanish esa g'oyaviy-siyosiy tarbiya

bilan, ijodiy tafakkurning rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Hozirgi vaqtida maktablarimizning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda borliqni faqat ijodiy o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyoj va qobiliyatni shakllantirishnigi na emas, balki ularda go'zallik qonunlari asosida borliqni qaytadan qurish hissini tarbiyalash hamdir. Jamiyatimizdagi har bir inson qaysi sohada ish olib borayotganligidan qat'iy nazar go'zallik va nafislikni ko'ra bilishi va tushuna bilishi kerak. O'quvchilarning estetik jihatdan tarbiyalash maqsadida o'qituvchi ularga tabiatdagi go'zallikni, shakllarning turli-tumanligini ko'rsatadi. Bolalarga quvonch, hayajon baxsh etgan tabiat go'zalliklari, so'z bilan tasvirlab bo'lmas rang birikmalari uzoq vaqtlargacha ularning xayolida saqlanadi. Manzaraning, daraxt shoxlarining, barglarning, gullarning o'ziga qarab rasmini chizish, ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish orqali bolalar tabiatga ko'proq qiziqadigan bo'ladilar. Bunday darslar bolalarga dunyoni keng va atroficha ko'ra olishga, shuningdek ko'rish orqali olgan taassurotlari doirasini kengaytirishga, narsalar haqida aniq va to'liq tushunchalar hosil qilishga yordam beradi. Rasm chizish jarayonida bolalar narsalarning shakli, mutanosibligi, fazodagi holatlari, rangi va och-to'qlik nisbatlarini diqqat bilan o'rganadilar.[5] Tasviriy san'at mashg'ulotlari o'quvchilarning ko'rish orqali idrok etishini o'stiradi. Ko'z orqali idrok etishni rivojlantirish deganda, biz maqsadga muvofiq kuzatish qobiliyatini tushunamiz, ya'ni narsa va hodisalarni solishtirish, ularning farqi va umumiylarini aniqlash, narsalarni shakl va tashqi ko'rinish jihatidan klassifikatsiyalashni anglaymiz. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, odamlar tashqaridan olayotgan har qanday ma'lumotlarining 90% dan ortiqrog'ini ko'z orqali oladi. [1] Bu kishilar hayotida ko'zning roli beqiyos ekanligini ko'rsatib turibdi va u ko'zning imkoniyatlari o'rganishni talab etadi. Maktabda esa ko'z xotirasini, uning imkoniyatlarini rivojlantirishda boshqa fanlarga qaraganda tasvirii san'at fani ancha ustun turadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda tasviriy san'atning insonlar hayotidagi roli yanada oydinlashadi. Maktablarimiz dunyoviy ta'limga asoslangan bo'lib, har bir fanning oson, qisqa, asosli o'qitilishining pedagogik sharoitini yarata

oladigan didaktik prinsiplarga amal qiladi. Bu prinsiplar: ilmiylik, izchillik, tarbiyaviylik, sistemalilik, ketma-ketlik, onglik-faollik, ko'rgazmalilik, ijodkorlik, nazariyot bilan amaliyotning uzviyiligi va yangi o'quv materiallari, o'quv fanlarini bir-biriga bog'liq holda o'qitishdan iborat bo'ladi. Shunday qilib, mакtabda tasviriy san'atni o'qitish orqali bir qator ta'lim va tarbiyaviy vazifalar amalga oshiriladi. Bu vazifalarni amalga oshirish jarayoni o'z o'rnida o'quvchilar tafakkurini rivojlantirish imkonini beradi, ularning tevarak-atrof haqidagi tushunchalarini umumlashtiradi va chuqurlashtiradi. Shular asosida bolalarda materialistik dunyoqarash shakllantiriladi. Məktəbda tasviriy san'atni o'qitish realistik rasm chizishni o'rganish odamlarga qanday imkoniyatlar yaratishini atroflicha ko'rsatishni maqsad qilib qo'yadi. O'quvchilarga rasm chiza bilish har qanday ishda, har qanday mutaxassislikda qo'l kelishini tushuntirib berish kerak. Masalan: insonlarda yozishdan oldin chizish qobiliyatining shakllanganligini (ibtidoiy davrdagi qoyatoshlardagi tasvirlar), xozirda tasviriy faoliyatning boshqa fanlarni tushuntirishda qo'llanilishi, teatr, kino, multfilm, arxitektura, mashinasozlik, o'yinchoqlar, o'quv qurollarini dizaynlari, kitoblarni badiiy bezash ishlarida, xona interyer dizayni va ishlab chiqarishning boshqa ko'pgina soxalarida qo'llanilishini kuzatishimiz mumkin. Məktəbda tasviriy san'atning asosiy amaliy vazifalaridan biri o'quvchilarni real rasm chizish usullari bilan qurollantirishdir. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilarga rasm chizish qurollari bilan qanday muomalada bo'lish, to'g'ri va egri chiziqlarni qanday o'tkazish, hajmli buyumlarni tekislikda qanday tasvirlay olish yo'llarini o'rgatadi. O'qituvchi o'quvchilarning ijodiyy qobiliyatlarini o'stirishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yar ekan, o'qituvchi bolalar bilan ishlashning to'g'ri metodikasini ishlab chiqishi lozim bo'ladi.[2]

Tasviriy san'atni o'qitishda o'qituvchi yangi pedagogik texnologiyaning "Dars texnologiyasi"dan foydalangan holda tabaqlashtirib o'qitish texnologiyasi prinsiplardan ham foydalanib, darslar samaradorligini oshirib

boradi. Pedagogika nazariyasi va mutaxassis pedagog olimlar tomonidan tabaqlashtirilgan ta’limning ikki turi ishlab chiqilgan:

*Darajali tabaqlashtirish.*

*Ixtisoslashtirilgan tabaqlashtirish.*

Darajali tabaqlashtirish ikki turga bo‘linadi. Individual ta’lim. Bunda o‘quvlarning qobiliyati va imkoniyatlariga qarab har bir o‘quvchi bilan alohida-alohida ish olib boriladi. Guruhli ta’lim. Bunda o‘quvchilarni qobiliyati va imkoniyatlariga qarab ularni ikki va undan ortiq guruhlarga ajratib o‘qitiladi. Ixtisoslashtirilgan tabaqlashtirish esa u yoki bu fanni chuqur o‘rgatish, o‘zlashtirishga qaratilgan bo‘ladi. Bular qatoriga tasviriy san’atni chuqur o‘rgatadigan to‘garaklar kiradi. Ta’limning bu turlarida o‘qituvchi sinfdagi barcha o‘quvchilarning qobiliyatini, qiziqishini, imkoniyatini, layoqatini hisobga olib dars samaradorligini oshirishga harakat qilishi lozim. Bu esa sinfdagi barcha o‘quvchilarning bilim va malakalarining yanada rivojlanishiga xizmat qiladi. Tabaqallashtirilgan ta’lim haqida fikr yuritganda avvalo uni ijobiy va salbiy jihatlari haqida yetarli tasavvurga yega bo‘lishlik nihoyatda muhimdir. Darajali tabaqlashtirib o‘qitishning ijobiy jihatlari haqida to‘xtalganda quyidagilarni qayd qilish lozim. [3]

Bunda:

Sinfdagi barcha o‘quvchilar dastur materiallarini o‘zlashtirishga erishadilar.

Sinfdagi barcha o‘quvchilarning bilim va malakalari, ijodiy ishlarida o‘sish kuzatiladi va u o‘quvchilarni fanga bo‘lgan qiziqishlari oshadi.

Sinfdagi barcha o‘quvchilarning faolligi oshadi. Chunki, past o‘zlashtiruvchilar guruhidagi har bir o‘quvchi yuqori o‘zlashtiruvchilar guruhiga o‘tishiga harakat qiladi. Yuqori o‘zlashtiruvchilar guruhidagi o‘quvchilar esa past o‘zlashtiruvchilar guruhiga tushib qolmaslikka harakat qiladilar.

O‘quvchilarni qobiliyati va imkoniyatiga qarab bilimlar berilayotganligi sababli, ular tomonidan o‘quv yuklamalarini o‘zlashtirishda zo‘riqish hollari ro‘y bermaydi.Sinfdagi iqtidorli o‘quvchilarning chuqur va atroflicha bilim olishga bo‘lganehtiyojlari ham qondiriladi.Tabaqallashtirilgan ta’lim uni demokratiyalashtirish va insonparvarlashtirishga yordam beradi. Lekin masalaning yana bir tomoni borki, tabaqaga ajratib o‘qitish nofaolroq bo‘lgan o‘quvchilar faoliyatiga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Yuqorio‘zlashtiruvchi o‘quvchilar esa, o‘zlariga ortiqcha baho berib, faol bo‘lmagan o‘quvchilarga nisbatan mensimaslik xislatlari kuzatilishi mumkin.Bu jarayonda o‘qituvchining pedagogik mahorati muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun ham o‘qituvchi masalaning bu jihatlarini hisobga olib, o‘quvchilarga yuqori, quyi so‘zları o‘rniga, birinchi, ikkinchi, uchinchi guruhlar deb qo‘llashi maqsadga muvofiqdir. Tabaqalashtirib o‘qitishning samarasi katta ekanligi bilan bir qatorda uning murakkab jihatlari ham mavjudligini alohida qayd qilish lozim. Uning murakkabligi o‘qituvchining uch xil darajadagi dasturlar asosida mashg‘ulot olib borishi bilan bog‘liq. Buning uchun har bir guruh uchun tasviriy san’atdan alohida darsliklar, metodika, didaktik va tarqatma materiallar, texnika vositalari kerak bo‘ladikim, ularsiz mashg‘ulotlarni talab darajasida tashkil etib bo‘lmaydi.

Bu esa quyidagi yo‘nalishlarda ifodalanadi:

Tabaqlashtirilgan tasviriy san’at ta’limining ilmiy asoslarini puxta egallagan bo‘lishlik;

Mashg‘ulotlar uchun zarur bo‘lgan o‘quv- metodik majmualar bilan qurollangan bo‘lishlik;

Mashg‘ulotlar uchun zarur bo‘lgan maxsus xona va moddiy texnikaviy bazaga ega bo‘lishlik;

O‘qituvchi o‘quv fanidan o‘quvchilarning bilim va malakalari haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lishligi v.b.[4]

**Xulosa:**

Zamonamizning atoqli pedagoglaridan biri professor R. Hasanov maktab tasviriy san'at o'qituvchisiga ta'rif berar ekan, u quyidagilarni alohida ta'kidlaydi "Mahoratli o'qituvchi bo'lish uchun yuksak odob namunasiga ega bo'lishi, har qanday og'ir sharoitda ham o'zini tuta bilishi, sabr-toqatli, sahovatli, muruvvatli, ijodkor, mehnatsevar, halol, pok, insofli, iymonli, o'rganuvchi va o'rgatuvchi kabi yuksak ma'nodagi hislatlarni o'zida mujassam etgan pedagog-rassom bo'lishi kerakligini bildiradi". Darhaqiqat, hozirgi zamon maktablarining tasviriy san'at o'qituvchisi yuksak tasavvurga ega, tafakkurli, aqli, zakovatli, tarbiyali, o'z fanini a'lo darajada biladigan, ijodkor rassom, pedagogika, psixologiya fanlarini chuqur o'rgangan, tasviriy san'at metodikasi bilan yaxshi qurollangan, tasviriy san'at darslarining pedagogik texnologiyasini yaxshi egallagan tasviriy san'at o'qituvchisi bo'lishi lozim. Masalaning qiyin va murakkab jihatlaridan yana biri bu o'qituvchining o'quvchilar haqida to'liq tasavvurga ega bo'lishlidir. Ma'lumki, har bir shaxs, o'zicha bir dunyo, shu qatori tasviriy san'atdan bilim malakalari ham bir-biridan farq qiladi. Buning ustiga o'quvchilardagi o'ziga xoslik shunchalik turli-tumanki, ularni aniqlash nihoyatda mushkul. O'quvchilarni har jihatdan bilish uchun o'qituvchi tomonidan o'quvchilar orasida pedagogik va psixologik tashxis o'tkazishi zarur bo'ladi. Bu ish bevosita quyidagilar bilan bog'liq: o'quvchining umumiyligi, qobiliyati, uning xarakteri, qaysi fanga qiziqishi, tasavvur, tafakkur va ijodiy fikrlash darajasi, faolligi va fantaziysi, xotira va kuzatuvchanligi, diqqati, tashabbuskorligi, mustaqilligi, uyda mashg'ulotlar uchun bo'lgan shart-sharoitlari v.b.

Shuningdek o'qituvchi o'quvchilarning qaysi sport turlariga qiziqishlari, qaysi san'at turlariga qiziqishi, hatto qaysi qush va hayvonlarga qiziqishini bilishi muhim. Chunki o'quvchilarning bunday narsalarga qiziqishlariga qarab, ularga samarali ta'sir ko'rsatish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) [1]

2.Sultonov X. E. "Rangtасvir" (Akvarelda naturmort ishslash, o'quv qo'llanma T.: "VNESHINVESTROM" MChJ, 2019.[2]

3.B.N. Oripov. Tasviriy san'atni o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyasi, didaktikasi va metodikasi.(o'quv-metodik qo'llanma) Toshkent - «ILM ZIYO» - 2013.[3]

4.Sobirov S.T. "IMPORTANCE OF ILLUSTRATIONS FOR PERCEPTION OF CONTENT OF THE BOOK". European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Volume 8 Number 4, 2020 Part II ISSN 2056-5852. 98-101[4]

5.[www.liblary.uz](http://www.liblary.uz)[5]